



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**KAMOLIDDIN HUSAYN VOIZ KOSHIFIY “LUB UL BOB-MASNAVIY”
HAMDA ODINA ESHONNING “MIFTOH UL-ASROR” ASARLARINING
ILMGA OID QISIMLARINING TAHLILI****Mirzajon Qalandarov**

*Eronshunoslik va Afg'onshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

Gulhayo Xushnazarova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. Lub ul bob-masnaviy, Voiz Koshifiy, Miftoh ul-asror, ilm, chashma, Miftoh ul-asror.

Annotatsiya. Mavlono Jaloliddin Rumiy tomonidan yozilgan “Masnaviy Ma'naviy” asari, XIII-XIV asrlarda yaratilgan mashhur tasavvufiy asarlardan biridir. Bu asar, tasavvuf fikrlarini, insonning ma'naviyatini, ruhiyatini rivojlantirishni va uning hayotdagi maqsadini tushuntirishni maqsad qilgan.

Voiz Koshifiy va Odina Eshon esa Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlarining tafsir va sharhlari bilan mashhur bo'lgan olimlardandir. Ular Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlari va xususan “Masnaviy Ma'naviy” asari ustida ko'plab tadqiqotlar olib borishlari bilan tanilganlar. Shuningdek, ularning sharhlari Mavlono Jaloliddin Rumiy fikrlarini chuqur tahlil qilish va tushuntirishga yordam beradi.

Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy jami qirqa yaqin asar yozgan, asarlarini fors tilida yozgan. Ular shakl va mazmun jihatdan juda xilma-xil bo'lib, XV asrning ikkinchi yarmida o'rta asrlar Eron va Markaziy Osiyodagi musulmon ilmining ko'plab sohalarini qamrab oladi. Koshifiy haqli ravishda buyuk ensiklopedik olim, hamda Eron madaniyatiga o'ziga xos yangi yo'nalishni olib kirgan Temuriylar davri arbobidir.

Voiz Koshifiyning “Lub ul bob-masnaviy” asari adabiyot tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan biridir. Bu asarida Voiz Koshifiy ta'lim va tarbiyaga oid boblar mavjud. Uning

asarida insonning ruhiy hayotini, ma'naviyatini, dunyoqarashini o'rganish va yuksaltirishning ahamiyati bayon qilinadi.

Asarning bir qismida asosan insonning ma'naviyatiga oid fikrlar va nazariyalardan iboratdir va tarbiya va ta'lim sohasidagi muammolarga jiddiy e'tibor qaratadi. Ushbu asar, Rumiyning "Masnaviyi Ma'naviy" asarining Voiz Koshifiy talqini va sharhiga bag'ishlangan bo'lib muallif davr o'quvchisi uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Voiz Koshifiyning "Masnaviy" sharhi orqali uning dunyoqarashini o'rganishga yordam beradi. Mazkur maqola Koshifiy va Odina Eshon asarlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ularning "Masnaviy" asari sharhlari orqali tasavvuf ilmidagi o'xshashlik va farqliliklarni ochib beradi. Ushbu tadqiqot Rumi merosining chuqur anglanishiga va uning zamonaviy o'quvchilar uchun qadr-qimmatini yoritishga xizmat qiladi.

ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC SECTIONS OF KAMOLIDDIN HUSAYN VOIZ KOSHIFI'S "LUB UL-BOB MASNAVI" AND ODINA ESHON'S "MIFTAH UL-ASROR"

Mirzajon Qalandarov

Senior Lecturer, Higher School of Iranian and Afghan Studies,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

Gulhayo Khushnazarova

Tashkent State University of Oriental Studies

ABOUT THE ARTICLE

Keywords: Lub ul-bob Masnaviy, Wa'iz Kashifi, Miftoh ul-asror, knowledge, source, Miftoh ul-asror.	Annotation. <i>Masnaviy Ma'navi, written by Mawlana Jalaluddin Rumi in the 13th–14th centuries, is one of the most renowned works of Sufi literature. This masterpiece aims to explain Sufi ideas, promote spiritual growth, explore the inner world of individuals, and elucidate the purpose of life.</i>
--	---

Husayn Wa'iz Kashifi and Odina Eshon are scholars known for their profound commentaries and interpretations of Mawlana Jalaluddin Rumi's works. They conducted extensive research on Rumi's writings, particularly on *Masnaviy Ma'navi*. Their interpretations have been instrumental in deeply analyzing and understanding the ideas embedded in the works of this great poet and thinker.

Kamoliddin Husayn Wa'iz Kashifi authored approximately forty works, all written in Persian. His works are highly diverse in form and content, encompassing various branches of Islamic knowledge in medieval Iran and Central Asia during the 15th

century. Kashifi is rightly regarded as a great encyclopedic scholar and a cultural figure who introduced unique directions to Iranian culture during the Timurid era.

Kashifi's work, Lub ul-bob Masnaviy, holds a significant place in the history of literature. This piece addresses topics related to education and upbringing. The author highlights the importance of exploring human spirituality, worldview, and the pursuit of moral and spiritual perfection.

A portion of the work is dedicated to discussions on spirituality and theories related to education and upbringing. This work serves as a commentary and interpretation of Rumi's Masnaviy Ma'navi, acting as a guide for readers of Kashifi's era. Analyzing Kashifi's commentary offers insights into his philosophical perspective on life.

This article focuses on a comparative analysis of Kashifi and Odina Eshon's works. It examines their interpretations of Masnaviy Ma'navi, uncovering similarities and differences in their approaches, thus contributing to a deeper understanding of Rumi's legacy and its relevance to contemporary readers.

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ РАЗДЕЛОВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ КАМОЛИДДИНА ХУСАЙНА ВОИЗА КОШИФИ «ЛУБ УЛ-БОБ МАСНАВИ» И ОДИНА ЭШОНА «МИФТАХ УЛ-АСРОР»

Мирзажон Каландаров

*Старший преподаватель, Высшая школа иранистики и афганистики,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

ХУШНАЗАРОВА Г.Б.

Ташкентский государственный университет востоковедения

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Луб ул-боб Маснавий, Ваиз Кашифи, Мифтох ул-асрор, знание, источник, Мифтох ул-асрор.

Аннотация: «Маснавийи Манавий», написанный Мавланой Джалалуддином Руми в XIII–XIV веках, является одним из самых известных произведений суфийской литературы. Это произведение направлено на объяснение суфийских идей, развитие духовности, внутреннего мира человека и осмысление цели его жизни.

Хусайн Ваиз Кашифи и Одина Эшон известны как ученые, прославившиеся своими комментариями и толкованиями произведений Мавланы Джалалуддина Руми. Они проводили множество исследований, связанных с творчеством Руми, особенно с его трудом «Маснавийи»

Манавий». Их толкования помогают глубже анализировать и понимать идеи, заложенные в произведениях великого поэта и мыслителя.

Камолиддин Хусайн Ваиз Кашифи является автором около сорока произведений, написанных на персидском языке. Его труды отличаются разнообразием форм и содержания, охватывая широкий спектр знаний исламского мира средневекового Ирана и Центральной Азии XV века. Кашифи по праву считается великим энциклопедическим ученым, который внес значительный вклад в развитие культуры эпохи Тимуридов.

Труд Ваиза Кашифи «Луб ул-боб Маснавий» занимает важное место в истории литературы. В этом произведении затрагиваются темы, связанные с обучением и воспитанием.

Автор подчеркивает значение изучения духовной жизни, мировоззрения человека, а также его стремления к духовному совершенству.

Часть произведения посвящена обсуждению вопросов духовности, теории и практики воспитания. Эта работа представляет собой комментарий и интерпретацию «Маснавийи Ма'навий» Руми, служа руководством для читателей своего времени. Анализ комментариев Ваиза Кашифи помогает раскрыть его философский взгляд на мир.

Настоящая статья посвящена сравнительному анализу трудов Кашифи и Одина Эшона. Исследование рассматривает их комментарии к «Маснавийи Ма'навий», выявляя сходства и различия в их подходах, что способствует более глубокому пониманию наследия Руми и раскрытию его актуальности для современных читателей.

KIRISH.

Masnaviy ma'naviy Mavlono Jaloliddin Muhammad binni Bahouddin Valad Balhiy Rumiyning shoh asarlaridan biri bo'lib, bu kitob Sharq va G'arb adabiyotida buyuk asarlardan biri sifatida ta'riflanadi.

Uning asliy nomi **Masnaviyi ma'naviy** “مثنوی معنوی” bo'lib, ma'nosini “Ruhiy ma'naviyatdagi ikki qatlamli she'r” deb tarjima qilish mumkin. Bu asar tasavvufiy mazmunlarga ega bo'lib, insonning ruhiyatiga yetib boradigan maslahatlarni o'z ichiga oladi. “Masnaviyi ma'naviy” da murakkab mantiqiy masalalar, hayotning ma'noli tomonlari, insonning manaviyatiga oid muammolar va ularning yechimlari, do'stlar o'rtasidagi muhabbat va hurmat kabi mavzular ko'rsatiladi. Asar davomida tasavvufiy qoidalar, zikr, fikr va muhokama usullari, odamlarning ruhiyatini rivojlantirishga oid maslahatlar ham berilgan.

Ushbu maqolada “Masnaviyi ma'naviy”ning Odina Eshon hamda Voiz Koshfiy tomonidan yozilgan sharxlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, adiblarning fikrlari o'rganishlarini tahlil

qilishdan iboratdir. Ikkala ijodkor ham o'z sharhlarida Mavlononing "Masnaviy"ida ma'naviyat va (irfon) tasavvuf, Qur'on oyatlari va payg'ambarlik hadislaridan ifodali shaklda sharhlar bitishgan.

"Masnaviyi ma'naviy" ning o'zbek tilida ham tarjimai mavjud. Ushbu asar xalq orasida o'ziga xos ma'naviy qiymati bilan tanilgan.

TADQIQOTNING USULLARI.

Bir necha asr avval ilm va ma'rifat sohasida qizg'in faoliyat olib borgan shaxslar orasida Mulla Husayn Voiz Kashfi Sabzavoriy va Shayx Odina Eshonning nomlari alohida o'rin tutadi. Ularning masnaviy janri va tasavvuf falsafasi yo'nalishidagi xizmatlari katta tahsinga sazovordir.

Xususan, Mulla Husayn Voiz Kashfi o'zining "Lub ul bob-masnaviy" asari orqali Balxlik Mavlono Jaloliddin Rumiyning "**Masnaviyyi ma'naviy**" nomli asaridan qimmatbaho qoidalar, ma'naviy fikrlar va hikmatlarni tanlab olib, ularga o'zining tahliliy yondashuvini qo'shgan. Ushbu asar tasavvuf ixlosmandlariga mo'ljallangan bo'lib, unda nafaqat tafakkur, balki ma'naviy poklanish yo'lidagi sirlar ham ochib berilgan.

"Miftoh ul-asror" deb nomlangan ushbu tahliliy asar nafaqat tasavvuf ilmini o'rganayotganlar, balki bu sohadagi murakkabliklarni anglashga intilayotgan barcha uchun ma'naviy kalit vazifasini bajargan.

Husayn Voiz Kashifiy o'z davrining ko'p qirrali olimi, notiqlik san'ati namoyandasi va nazariyotchisi sifatida tanilgan. U nafaqat mutafakkir va ilohiyotchi, balki ko'p tillarni mukammal egallagan bilimdon shaxs edi. Arab, fors va turk tillarini mukammal bilishi unga turli sohalaridagi asarlarni o'rganish va ijod qilish imkonini bergan.

Kashifiyning bilim doirasi juda keng bo'lib, u kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fiqh sohalarida chuqur ma'lumotga ega bo'lgan. U tasavvuf va notiqlik sohalarida ham nazariy ham amaliy jihatdan ulkan meros qoldirgan. Uning notiqlik san'ati va adabiy mahorati shu qadar baland darajada ediki, asarlari orqali u o'z davrining eng nufuzli mutafakkirlaridan biriga aylangan.

Husayn Voiz Kashifiy asarlarida, jumladan, "Lub ul bob-masnaviy" va boshqa adabiy-nazariy merosida inson ruhiyati, ma'naviy yuksalish va tasavvufning mohiyati yuksak badiiylik bilan ochib berilgan. U ko'p tillilik va keng dunyoqarashi tufayli Sharq madaniyatining ko'plab sohalarida muhim rol o'ynagan.

Yoshligidan voizlik bilan shug'ullangan. Nishopur Mashhadda (1455-1468), keyinchalik Hirotda yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan.

Koshifiy tasavvuf adabiyotining dunyodagi eng mashhur notiqiga aylandi va uning tafakkuri va tasavvufi zamon va makon chegarasidan oshib, butun insoniyat undan bahramand bo'ldi. Voiz Koshifiy Temuriylar davrining oltin davri, Jomiy, Xoja Ahror Valiy, Navoiy davrida Hirotda yashab ijod qildi, uning asarlari, xususan, tafsiri diyorlarimizdagi madrasalarda asosiy adabiyot sifatida o'qitildi.

Shayx Odina Eshon esa, Xorazm diyorida yetishib chiqqan valiy zot bo'lib, uning to'liq nomi Abu-l-Muzaffar ibn Sayyid Muzaffar al-Xusayniy al-Xorazmiy al-Karvakiydir. Uning asl ismi Sayyid Odina Muxammad bo'lgan. "Miftoh ul-asror"ning yagona nusxasi O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida 7143 ashyo raqami bilan saqlanmoqda. Bu nusxa Muhammad Rahmxon Feruzning ko'rsatmasi bilan Habibulloh ibn Mulla Abdussalom al-Hoaqohiy tomonidan ko'chirilgan. Bu nusxada kotib tomonidan yo'l ko'yilgan ayrim xatolar ko'zga tashlanadi, ba'zida qaytariqlar va tugallanmay qolgan baytlarni ko'rish mumkin. Shu kunlarda Xorazm viloyatining Bog'ot tumanida Odina Eshonning avlodlari yashamoqda. Odina Eshonning qabri shu tumandagi Dehqonobod qishlog'ida joylashgan bo'lib, katta ziyoratgoh hisoblanadi.

Garchi "Masnaviy" asrlar davomida ko'plab talqin, saralash va sharhlarga duch kelgan bo'lsa-da, Mulla Husayn Voiz Kashfiy va Shayx Odina Eshonning bu asarga qo'shgan hissasi asl va o'ziga xosligicha qolmoqda. Ular Rumiylar asarini nafaqat izohlash, balki uning ichki ma'no qatlamlarini ochib berishga qaratilgan nazariy ishlari orqali "Masnaviy"ning ruhiy va falsafiy chuqurligini saqlab qolgan holda, zamondoshlariga yangi tushunchalar yetkazishga muvaffaq bo'lganlar.

NATIJALAR.

Bu ulug' allomalar tomonidan olib borilgan ishlar, ya'ni Rumiylar asaridan ajralib chiqadigan ma'nolar va talqinlar, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular Rumiylar falsafasining nozikliklarini saqlagan holda, asarning mohiyatini chuqur anglash uchun muhim asarlar yaratganlar va bu bilan tasavvuf ixlosmandlari orasida o'chmas iz qoldirganlar. Shuning uchun ham o'sha davrdan to hozirgacha masnaviychilarning diqqat markazida bo'lib, doimo Masnaviy bilan birga yonma-yon bo'lishgan. "Lub ul bob-masnaviy" kitobi hazrati Rumiylar "Masnaviy"idan parcha bo'lib, uni Molhasin Voez Hiraviylar parcha yozish jarayonida tayyorlagan. Bu kitob besh yuzga yaqin mavzudan iborat bo'lib, uning ostida har bir mavzuga oid she'rlar joylashtirilgan.

Mulla Husayn Voiz Hiravi "Masnaviy"dan tanlov yaratishni ikki muhim sababga ko'ra amalga oshirgan. Avvalo, "Masnaviy"ni u cheksiz ma'naviy bilim va hikmatlar dengizi sifatida ko'rgan. Ushbu asar tasavvuf ahli va mo'minlar uchun zarur bo'lgan barcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi va ularning ruhiy o'sishi uchun boy manba sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi sabab esa, ba'zi do'stlarining undan shu maqsadda alohida tanlov yaratishni so'rashganidir. Ularning iltimosi va "Masnaviy"ning tariqat yo'lida ulkan foydasini hisobga olib, Voiz Hiravi "Lub ul bob-masnaviy"ni yaratishga qaror qilgan. Bu asar Rumiylar falsafasi va hikmatlarini ixcham va tizimli shaklda taqdim etgan bo'lib, o'quvchilarga tasavvufning murakkab jihatlarini tushunishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

"Lub ul bob-masnaviy" o'zining mazmuniy boyligi va hikmatlarga boyligi bilan besh asrdan oshiq vaqt mobaynida o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Bu kitob nafaqat tasavvuf ahli, balki ma'naviy yuksalishga intiluvchi har bir inson uchun muhim manba bo'lib qolmoqda. Undagi har bir tanlov va xulosa Mulla Husayn Voiz Hiraviylar chuqur tafakkuri va adabiy mahoratidan dalolat beradi.

Boblar nomlanishi	
Lub ul bob-masnaviy	Miftox ul-asror
	Birinchi fasl: Ushbu kitob Musannifi Holining boshlanishi, ya'ni tavfik va tavbaning xosil bo'lishiga ko'z tikishi, haqiqat va martaba navlarining nuzul qilinishi bayonida
Birinchi oyna: Shariat turli jamoalar bayonida	Ikkinchi fasl: ilm ul-yaqin va jazba hamda tajalliyotning boshlanishi bayonida
Ikkinchisi oyna: Tariqat sirlarini ifodalash	Uchinchi fasl: Ayn ul-yaqin ta'yini va uni tahqiq qiluvchilar bayonida
Uchinchi oyna: Haqiqat nurini ifodalash haqida	To'rtinchi fasl: soliklar darajasining nihoyati bo'lgan haqqa ul-yaqinning haqiqati bayonida
	Beshinchi fasl: taqlid ahli bayonida va ular bilan bo'ladigan suhbatning ziyoni zikrida
	Oltinchi fasl: kamol ahlining sifati va hazrati xudovandi ta'ologa yaqin bo'lgan ilohiy xos bandalarning visolga yetish tarqi bayonida

Koshfiyning ushbu kitobining tuzilishi juda original va u uchta tamoyilga asoslanadi. Har bir **Oyna** bir nechta **chashmalarni** o'z ichiga oladi va har bir chashma bir nechta **tomchilarni** o'z ichiga oladi. Bu tuzilishdan maqsad shariat jabhalarida keng qamrovli bo'lish, tariqat sirlarini ochib berish va haqiqatga erishishdir. "Lub ul bob-masnaviy" Eronda ko'p marta, jumladan, "Afshari" va "Asatir" nashriyotlarida chop etilgan va nashr etilgan. Ushbu kitobning oxirgi nashri 2006 yilda Sarat madaniyat instituti tomonidan qilingan.¹

Odina Eshonning yozishicha, uni sharhlashga undagan narsa, birinchidan, "Masnaviy" ning eng nozik joylarini hech kim mukammal sharhlab berolmagani bo'lsa, ikkinchidan, o'zidan avvalgi sharhlovchilar sharhlarni juda cho'zib yuborganliklari, natijada o'quvchini asosiy maqsaddan chalg'itib yuborganliklaridir. Odina Eshon baytlarni soda va lo'nda sharhlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.²

MUHOKAMA.

¹ <https://bookroom.ir/book/35890/%D9%84%D8%A8-%D9%84%D8%A8%D8%A7%D8%A8-%D9%85%D8%AB%D9%86%D9%88%DB%8C>

² Shayx Odina Muxammad Xorazmiy Miftox ul-asror (Sirlar kaliti) Ilmiy-adabiy nashr "Musiq" nashriyoti Toshkent 2006-yil.

“Masnaviy” tarjimalari haqida.

Masnaviy boshqa tillarga bir necha bor tarjima qilingan. Bunga misollar:

1. “Masnaviy” tarjimasi va sharhlari. Ushbu tarjima turkcha bo‘lib, Istanbulda nashr etilgan. Nasriy tarjima muallifi Obiddin Poshshadir.

2. “Masnaviy” tarjimasi. Nahifiy va Farruh Ismoil tarjimonlari tomonidan nasrdagi forscha matnli turkcha. U 1851 yilda Misrda nashr etilgan.

3. Masnaviyning biografik she’ri (Masnaviyning she’riy tarjimasi). Tarjimon - Muhammad Sulaymon ibn Abdurahmon. Turkiyada nashr etilgan.

4. O‘zbekcha tarjima. Ushbu tarjimani taniqli shoir va mohir tarjimon, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol amalga oshirdi. Jamol Kamol “Masnaviy”ning olti jildining hammasini she’rga o‘giran va bu tarjimalar 2001-2004 yillarda Toshkentda nashr etilgan. “Masnaviy”ning o‘zbek tiliga ilk tarjimasi O‘zbekiston ma’naviy hayotining ulkan yutuqlaridan biri bo‘ldi. J.Kamolning ushbu tarjimasi eronlik olim Muhammad Istelomiyning tanqidiy matni va ingliz olimi R.Nikelson tomonidan tayyorlangan nusxasi asosida yaratilgan.³

Odina Eshonning sharhi va uning tarjimasi

Odina Eshon nomi bilan shuxrat topgan bu zotning to‘liq, nomi Abu-l-Muzaffar ibn Sayyid Muzaffar al-Xusayniy al-Xorazmiy al-Karvakiydir. Uning asl ismi Sayyid Odina Muxammad bo‘lgan.

Odina Eshon yoshligidanoq; tasavvuf goyalari ta’sirida bo‘ladi. Madrasa ilmlarini egallab bo‘lgach, yosh yigit birorta pirga qo‘l berish uchun xarakat qiladi. Biroq Sharq islom olamidan bunday piri topolmagach, mustaqil shug‘ullanishga kirishadi. Bu borada unga Rasulullohning ruhi yordamga keladi. Demak, Odina Eshon uvaysiylardan hisoblanadi. Odina Eshon hayoti davomida Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarini tinimsiz mutolaa qiladi va undagi sir va ramziy ishoralarni turlicha o‘rganishga muvaffaq bo‘ladi. Tasavvufda kamolga yetib, valiylikning yuksak pog‘nasiga ko‘tarilgan Odina Eshon “Masnaviy”ning eng nozik nuqtalarini sharhlab berishga axd qiladi.

Odina Eshon “Miftox ul-asror” (“Sirlar kalti”) deb atagan bu kitobida “Masnaviy”ning dastlabki uch kitobini sharhlagan.⁴ Kitobni sharhlashga kirishuvdan avval unga bir muqadima berildiki, unda kitob ma’nosining qissa bayoni keltirildi va usulning binosi va eshiklari ayon kilindi. Toki bu muqaddimaning yordami bilan maqsadlar va ma’nolar undan foydalanuvchilar uchun oson bo‘lsin deb, bu muqadima olti faslga bo‘lindi.

Birinchi fasl - ushbu kitob muallifining boshlang‘ich holi bayonida.

Ikkinchi fasl - ilm ul-yaqin va jazba hamda tajalliyotning boshlanishi bayonida.

^{3 3} Shayx Odina Muxammad Xorazmiy Miftox ul-asror (Sirlar kaliti) Ilmiy-adabiy nashr “Musika” nashriyoti Toshkent 2006-yil.

⁴ Шайх Одина Мухаммад хоразмий “Мифтох, ул-асрор (сирлар калити) («Маснавийи маънавий» тафсири) Форсийдан Махмуд Хасаний таржимаси. «Муסיқа» нашриёти Тошкент 2006

Uchinchi fasl - ayn ul-yaqinning ta'yini va unga axd bo'lganlarning tahqiqi bayonida.

Turtinchi fasl - Xaqq ul-yaqinning martabasi va soliklar darajasining nihoyati bayonida.

Beshinchi fasl - taqlid axlining zikri hamda ular bilan bo'ladigan suhbatning zararlari bayonida.

Oltinchi fasl - kamol ahlining sifati va Ilohiy xos (banda)larning Alloh ta'olaga yetishish yo'lining bayonida.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, Mulla Husayn Voiz Koshfiyning hamda Odina Eshonning "Masnaviy" asarlari muqaddimasini bo'limlarga ajratilganliklari, o'rganish jarayonini tizimga kiritadi va asar tahlilini osonlashtiradi. Bu qismlarga ajratish, asar ustida tahlil qilish va uni tushunishga yordam beradi. Ularning ajratish usuli turlicha bo'lib Odina Eshon fasllarga bo'lgan bo'lsa Voiz Koshfiy chashma va tomchilarga ajratib chiqdi. Quyida ikkala asardan ham ilmga oid qisimlarining ba'zi sharhlarni keltirib o'tamiz.

“Lub ul bob-masnaviy”:

Ikkinchi (Oyna)

Tariqat sirlarini ifodalash

Birinchi chashma: “Xulq-atvorning kelib chiqishida ishlatiladi”

Ehtimol, bu iqtibos ma'naviy va diniy yo'lning boshlanishida o'quvchining ahamiyati va o'rni haqidadir. Tasavvuf va diniy ma'noda o'quvchi – Allohga yetishish va ma'naviy ma'rifat yo'lini izlayotgan kishi. Shu tariqa o'quvchi ruhi va axloqini poklash va mustahkamlash orqali eng chuqur diniy-ma'naviy haqiqat va ma'nolarga erishishga harakat qiladi. Bu jumla ma'naviy sayohatning boshida izlovchining ahamiyati va roli va uning yo'ldagi taraqqiyot va rivojlanishga ta'siriga ishora qilishi mumkin.

1. Birinchi tomchi: Jazo haqida

Bu iqtibos Imom Humayniyning ma'naviy va diniy asarlari va fikrlaridan bo'lsa kerak. Bu iqtibosda ma'rifat va botiniy ilm uchun jazoga e'tibor berish va uyqusizlikdan uyg'onish, vaqtni sanash va ilohiy ilhomlarni idrok etish muhimligiga ishora qiladi.

“ان لربكم في ايام دهر كم نفحات الافتعر ضوالها”⁵ iborasi hayot davomida Alloh taolo insonga ilohiy ilhom va ilohiy yo'l-yo'riq beradi, lekin ba'zi odamlar bu ilhomlarni tushunmaydilar yoki ba'zi sabablarga ko'ra ularni o'tkazib yuboradilar. So'ngra bu hidlarni hidlash bilan inson qalbida nur va oshnolik namoyon bo'ladi va u Allohga hidoyat qiladi. **“Alayhi Ashar”** iborasi Allohga hidoyat va yo'l-yo'riq ma'nosini bildiradi.

2. Ikkinchi tomchi: Tavba haqida

⁵ Bu satr Qur'onning Alaq surasidan (96:3) olingan. Ushbu oyatda "Rabbingiz, sizning hayotingizning har bir kunida nechta nimalar ko'rsatadi" degan ma'noni ifoda qiladi. Bu oyatda, insonlarga Allohdan kelib chiqadigan rahmat va fazilatlarining ko'pligi ta'riflanadi. Bu, bizga hayotimizda har kuni nimani qadrlashimiz va shukr qilishimiz kerakligini eslatadi.

Bu bayonotlar arab tilida bo'lib, tavba qilish va gunohlardan poklanishning ahamiyati va bosqichlari haqida gapiradi. Bu bayonotda tavba Bob al-Abvob yoki Xudoga yaqinlashish uchun eshik sifatida tasvirlangan. Shuningdek, ular tavbani ikki toifaga ajratganlar: umumiy tavba va aniq tavba. Umumiy tavba o'tgan gunohlarga pushaymon bo'lishni va xudoga murojaat qilishni o'z ichiga oladi, aniq tavba esa kelajakdagi gunohlardan voz kechishni va o'zini isloh qilishga qaror qilishni o'z ichiga oladi. Bu bayonotlar tavba qilish, gunohlardan pushaymon bo'lish va qalbni poklash uchun xudoga murojaat qilish muhimligini ta'kidlaydi.

3. Uchinchi tomchi: Yaxshi kishilar suhbat haqida

Bu bayonotda yaxshi insonlar bilan suhbatlashish, ularga qo'shilish muhimligi aytiladi. Aytishlaricha, tavba qilgandan keyin pokiza va izlovchilar bilan suhbatlashishdan ko'ra yaxshiroq ichimlik yo'q. Shuningdek, yomon odamlarning jamoatidan qochish kerakligi aytilgan, chunki bu odamlar yomon ta'sirga ega bo'lishi mumkin va siz ularning vasvasalariga duch kelasiz. Oxirida "نَعُوْذُ بِاللّٰهِ مِنَ الْحُوْرِ بَعْدَ الْكُوْرِ وَ الْيَةِ"⁶ iborasi bilan Allohdan panoh so'raymiz.

4. To'rtinchi tomchi: Talab haqida

To'g'ri tushundingiz. Bu iborada tasavvuf ulamolarining suhbatlari va muqaddimalari inson qalbini munavvar qilib, uni izlovchi yo'lga olib borishini aniq tasvirlab beradi. Bu pok insonlarning so'zlaridan taraladigan, izlovchini maqsadlar sari yetaklovchi ma'rifat va hidoyat nuridir. Tasavvuf va tashabbuslar bilan bu ruhiy aloqa ruhiy yo'lda taraqqiyot uchun to'liqlik va yangilik hissin beradi.

Ikkinchi chashma: Piru Komilning (ustoz) hidoyatiga murojaat qilib

Aytish mumkinki, Pir Komilning hidoyatiga murojaat qilish, Habaluloh al-matin, ya'ni Ollohning jarangdorligi bilan bog'liq bo'lgan Shayx Komilning hidoyati va rahnamoligiga ishonish demakdir. Ma'naviy yo'l izlashda ixlos bilan bo'lgan izlovchi Shayx Momoilning hidoyatiga ishonchi va bo'ysunishi bilan o'z maqsadiga yaqinlashadi va shayxga ixlos va ehtiromini yetkazadi. Bu turdagi murojaat tolibning Shayx Komilning hidoyatiga bo'lgan samimiy e'tiqodi va amallarini ko'rsatadiki, bu oxir-oqibat tasavvuf Kamil Ruhulloh Ruha aytganidek, tasavvufiy va ma'naviy mavqelarni egallashga olib keladi:

يا باد ارادت طلب در تو جهد

يا موى كشان تو را بر شيخ برد

يا او به دو اسبه رخ به سوى تو نهدي

(Bu she'rda hayotga ishonch va kelajakka umid ikki asosiy tushunchadir. Bu o'rinda shoir iymon va umidning ahamiyatini tilga olib, hayotimizdagi zulmat va muammolar bizni qamrab olgan bo'lsa ham, iymon va umid bilan yorug'lik va go'zal kelajak sari qadam tashlashimiz

⁶ Bu ibora "zulmatdan keyin vasvasadan panoh so'raymiz va unga qaytamiz" diniy iborasi Allohdan yordam so'rash va yomonlik va ofatlardan panoh so'rab Unga murojaat qilish uchun qo'llaniladi. Bu ibora o'z-o'zini himoya qilish va xavf va baxtsizliklardan himoya qilish uchun Xudoga murojaat qilish istagini bildiradi. Ushbu iboraning qo'llanilishi Xudoning kuchiga bo'lgan ishonchni va imonlilarning har qanday sharoitda ham Unga murojaat qilishlariga ishonchini aks ettiradi.

mumkinligini aytadi. Bu she'r har qancha og'ir bo'lmasin, e'tiqodimiz, umidimiz bizni g'alaba va muvaffaqiyatlar sari yetaklashini eslatib turadi).

Ha, Shayx Komilga nisbatan xushmuomalalik va ehtiromga rioya qilish, xizmat ko'rsatishni farz shart deb bilish kerak. Shayx Komilga bo'lgan bu hurmat va xizmat tobening e'tiqodi va uning hidoyatiga bo'ysunishidan dalolatdir. Shuningdek, xizmat ko'rsatish shartlariga rioya qilish juda muhim bo'lib, shayxning ko'rsatmalariga tolibning halolligi va samimiyligini ko'rsatadi. Bu xatti-harakatlar ma'naviy va tasavvufga erishish yo'lida samarali va foydali bo'ladi. Murabbiyga xizmat qilish, unga ishonish ilohiy maqomlarga erishish yo'li ekan, bu tamoyillar ma'naviyatni yuksaltirishda, Shayx Komilga murojaat qilishdan maqsad ro'yobga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Miftox ul-asror asari sharhlari. “Ehson bu Allohni ko'rib turgandek ibodat qilishingdir, agar sen Uni ko'rmasang, U seni ko'rib turadi”. Xazrati Mavlaviy Rumiy, Alloh sirini muqaddas qilsin, (bu bobda) buyuradilar. Masnaviy:

از پی آن گفت حق خود را بصیر

که بود دید ویت هر دم نذیر

از پی آن گفت حق خود را سمیع

تا ببندی لب ز گفتار شنیع

از پی آن گفت حق خود را علیم

تا نیندیشی فسادى تو ز بیم⁷

(Xaq o'zini shuning uchun Basiyr (ko'ruvchi) deb aytdiki,

Toki sening ko'zing qo'rqib turuvchi bo'lsin.

Xaq o'zini shuning uchun Sami' (eshituvchi) deb aytdiki,

Toki sen yomon so'z aytishdan labingni yumgin.

Xaq o'zini shuning uchun Aliyim (biluvchi) deb aytdiki,

Toki sen qo'rquvdan yomon ishni qilmagin.)⁸

Onhazrat sallallohu alayhi va sallam: “Ilm ikkidir, biri qalb ilmi va bu foydali ilmdir” deb aytgan foyda keltiruvchi ilm shu ilmdir. Allohning ilmi amallarga nisbatan afzaldir, agar bu ilm bo'lmasa, amalning unchalik e'tibori yo'q. (Xadisda aytiladi): “Ilm bilan bo'lgan ozgina amal ham foyda keltiradi, nodonlik bilan bo'lgan ko'pgina amal foyda keltirmaydi”. Boshqa bir joyda buyuradilar: “Kimki bilganiga amal qilsa, Alloh ta'olo bilmagan ilmini ham bildiradi”. Hazrati Mavlaviy, sirlari muqaddas bo'lsin, (bu haqda) buyuradilar. Masnaviy:

خویش را صافی کن از اوصاف خود

⁷ <https://ganjoor.net/moulavi/masnavi/daftar4/sh9>

⁸ Шайх Одина Мухаммад хоразмий “Мифтох, ул-асрор (сирлар калити) («Маснавийи маънавий» тафсири) Форсийдан Махмуд Хасаний таржимаси. «Муסיқа» нашриёти Тошкент 2006

تا ببینی ذات پاک صاف خود

بینی اندر دل علوم انبیا

بی کتاب و بی معید و اوستا⁹

(O‘z sifatlarindan o‘zingni sof qil,

Shunda o‘z pokiza zotingni ko‘rasan.

Dilingda anbiyolar ilmini,

Darssiz, kitobsiz, ustodsiz ko‘rasan.)¹⁰

(Bu tushuncha o‘z-o‘zini bilish va o‘z mohiyati bilan chuqur bog‘lanishga yordam beradi va ichki va ma‘naviy bilimning odatiy va tashqi ta‘limdan muhimligini ta‘kidlaydi).

Noqis va taqlidchi odamning suhbatı zahri qotildir. Hazrati Mavlaviy Rumiy, sirlari muqaddas bo‘lsin, aytadilar:

چون بسی ابلیس آدم روی هست

پس به هر دستی نشاید داد دست¹¹

(Iblisga o‘xshagan odamlar ziyoddir,

Shuning uchun har qanday qo‘lga qo‘l berib bo‘lmaydi.)

Va Onhazrat sallallohu alayhi va sallam buyurdilar: “Kimiki qishloqda bir kun yashasa u bir oy ahmoq bo‘ladi, kimki qishloqda bir oy yashasa bir umr ahmoq bo‘ladi”. Hazrati Mavlaviy Rumiy, sirlari mukaddas bo‘lsin, bu hadisning tarjimasini quyidagicha buyuradilar:

ده مرو ده مرد را احمق کند

عقل را بی نور و بی رونق کند

ده چه باشد؟ شیخ واصل نأشده

دست در تقلید و حجت در زده

از خدا بویی نه او را نه اثر

دعویش افزون ز شیث و بوالبشر

(Qishloqqa borma, qishloq odamni ahmaq qiladi,

Bedil, benur va beravnaq qiladi.

Qishloq nima? Bu yetishmagan shayx bo‘lib,

⁹ <https://ganjoor.net/moulavi/masnavi/daftar1/sh156>

¹⁰ Шайх Одина Муҳдммад хоразмий “Мифлоҳ, ул-асрор (сирлар калити) («Маснавийи маънавий» тафсири) Форсийдан Махмуд Хасаний таржимаси. «Муסיқа» нашриёти Тошкент 2006.

¹¹ <https://ganjoor.net/moulavi/masnavi/daftar1/sh11>

Taqlidga qo'lgan va uni o'ziga hujjat qilgandir.

Uning Xudodan na bo'y va na xabari bor,

Da'vosi esa Shish va Abul Bashar (Odam)dan ham ortiqdir.)¹²

(Rumiy bu she'rida ilohiyot va ma'naviyatning bevosita va shaxsiy tajribasining ahamiyatini tilga oladi. Hech kim boshqalarga taqlid qilish yoki bo'sh va ma'nosiz sabablar bilan Alloh taoloning aql va idrokining chuqurligi va yorqinligiga erisha olmasligini ta'kidlaydi. Rumiy ta'kidlaganidek, agar inson nafsga va to'g'ridan-to'g'ri ilohiyot tajribasiga yetmagan bo'lsa, uning aql-zakovatining nuri va farovonligi kamayibgina qolmay, balki ilohiyot va ilohiy huzur tajribasidan ham yiroq bo'ladi).

XULOSA. Yuqorida berilgan sharhlarimiz Voiz Koshfiy hamda Odina Eshonning asarlaridagi tarbiya va ilmga oid qismlaridagi sharhlarini tahlil qilishga harakat qildik. Ikkita buyuk olimlarimiz bu borada juda ko'p ishlarni amalga oshirishgan. Ularning hayot yo'llarini o'rganish jarayonida ularning qanchalik dono ekanliklari va o'zlarining izlanishlaridan aslo chekinmaganliklarini o'rganishlarimiz davomida guvohi bo'ldik.

Voiz Koshfiy asosiy ixtisosligi va'z bo'lib, uning bu vazifani a'lo darajada bajarganligi dalillardan dalolat beradi. Voiz Koshfiy xutbalari shunday ediki, ularda Sulton Husayn va boshqa saroy a'yonlari qatnashardilar.

“Rehana al-Adab” muallifi Muhammad Ali Mo'daresaning yozishicha, va'zlar ba'zan shu qadar ehtirosli bo'lib, nafaqat tinglovchilarga, balki Koshfiyning o'ziga ham ta'sir qilar, Qur'on tilovat qilayotganda esankirab qoladi va hushidan ketardi.¹³ Ushbu va'zlarning matni, masalan, Jame al-Stayn va Ravda as-Safo tomonidan yozilgan, qayta o'qilgan va hatto kitobga aylantirilgan. Koshfiyning ma'ruzalari nafaqat oddiy odamlar, balki olimlar orasida ham mashhur edi. Uning xutbalari nafaqat Hirotda, balki Sabzevorda ham juda mashhur bo'lib, Koshfiy Sarbadaron davridan keyin gullab-yashnagan va Xurosondagi shialarning yig'ilish markaziga aylangan o'sha shahar masjidida va'z qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Uning ma'ruzalari asosan Qur'on tafsiriga bag'ishlangan bo'lsa-da, go'zal she'r, yoqimli latifalar, ibratli insholar va yoqimli ovoz bilan birga keladi.

Odina Eshon va Voiz Koshfiyning "Masnaviyi ma'naviy"ga yozgan sharhlari Mavlonoing asarini tahlil qilishda yordam berishi, o'qituvchilar, tadqiqotchilar uchun foydalidir. Bu tahlil va sharhlar orqali asar ustida chuqurroq tushunish va o'zgaras ma'nolarni ko'rish imkoniyati ochiladi. Shuningdek, Mavlonoing "Masnaviy"ida Qur'on oyatlari va payg'ambarlik hadislariga qaratilgan murojaatlar va ularning tafsiliy sharhlari ham juda muhimdir. Odina Eshon va Voiz Koshfiyning bu qismga berilgan e'tibor ularga Qur'on va hadislar asosida Mavlonoing asarini tahlil qilishda qanday qo'llanishlar kiritganligi haqida juda kengroq ma'lumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. مولانا ملاحسين كاشفى : لب لباب مثنوى

¹² Шайх Одина Мухаммад хоразмий “Мифлох, ул-асроф (сирлар калити) («Маснавийи маънавий» тафсири) Форсийдан Махмуд Хасаний таржимаси. «Муסיқа» нашриёти Тошкент 2006

¹³ نگاهى-اجمالى-به-حيات-و-انديشه-سياسى-ملاحسين-واعظ-كاشفى

2. Шайх Одина Мухаммад хоразмий “Мифтоҳ, ул-асрор (сирлар калити) («Маснавийи маънавий» тафсири)

3. Movlono Jaloliddin Rumi “Masnaviy Ma'naviy”

Internet manbaalar

1. <https://ganjoor.net/moulavi/masnavi/daftar4/sh9>

2. <https://bookroom.ir/book/>

